Annotatsiya. Ushbu maqolada hududlarda sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikni samarali shakllantirish mexanizmlari o‘rganilgan hamda uning shakllari tasniflangan. Tadqiqotda sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada sport turizmi sohasida servis tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmining yo‘nalishlari va turlariga doir amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sport, turizm, tadbirkorlik, sport turizmi, innovatsion iqtisodiyot, metodologiya, iqtisodiy mexanizm, institutsional muhit, davlat-xususiy sheriklik, model, konsepsiya, investitsiya.

Abstract. This article examines the mechanisms for effectively establishing public-private partnerships in the field of sports tourism in various regions and presents a classification of their forms. The study analyzes promising directions for implementing the public-private partnership mechanism in the sports tourism sector. In addition, the article provides practical recommendations regarding the directions and types of the public-private partnership mechanism within the sports tourism service network.

Keywords: sport, tourism, entrepreneurship, sports tourism, innovative economy, methodology, economic mechanism, institutional environment, public-private partnership, model, concept, investment.

Аннотация. В данной статье исследуются механизмы эффективного формирования государственно-частного партнёрства в сфере спортивного туризма в регионах, а также приводится классификация его форм. В исследовании проанализированы перспективные направления внедрения механизма государственно-частного партнёрства в сфере спортивного туризма. Кроме того, в статье даны практические рекомендации по направлениям и видам механизма государственно-частного партнёрства в сети сервисов в сфере спортивного туризма.

Ключевые слова: спорт, туризм, предпринимательство, спортивный туризм, инновационная экономика, методология, экономический механизм, институциональная среда, государственно-частное партнёрство, модель, концепция, инвестиции.

KIRISH

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida turizm jahon xo‘jaligining eng tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan va shu tufayli uning tarkibida o‘z mavqeini tobora mustahkamlab borayotgan istiqbolli tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Bugungi kunda “jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 foizni, jahon xo‘jaligi yalpi investitsiyalaridagi ulushi 7 foizni hamda jahon xo‘jaligi xizmatlar eksportining 27 foizini turizm sohasi tashkil etadi” [1]. Turizmni rivojlantirishning asosiy afzalligi va uning amaliy natijalari daromadlarni ko‘paytirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, turizm dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotining boshqa sohalariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Jahonda milliy iqtisodiyotlar turistik xizmatlar sohasida muhim ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirishning samarali muqobil shakli sifatida davlat-xususiy sheriklik modelidan foydalanishga alohida e’tibor qaratmoqda. “Rivojlangan davlatlarda ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag‘larning YaIMga nisbatan ulushi 3,0 foizni tashkil etgan holda, jami mablag‘larning 2/3 qismi tadbirkorlik sohasi hissasiga to‘g‘ri kelmoqda hamda mazkur sohada

davlat-xususiy sheriklik loyihalarining ulushi qariyb 65,0 foizni tashkil etmoqda” [2]. Bugungi kunda sport turizmi sohasida davlat va xususiy biznes hamkorligining asosiy shakli sifatida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Stephen J. Page o‘zining Tourism Management nomli monografiyasida sport turizmi bilan bog‘liq g‘oyalar va yondashuvlarni tahlil qilgan. Monografiyada sport turizmi turizm industriyasining alohida segmenti sifatida yoritilgan. Muallif fikriga ko‘ra, turizm bozori ichida maxsus qiziqishlarga asoslangan turizm turlari tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda va sport turizmi ular orasida eng jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Sport turizmi o‘ziga xos bozor talabiga ega bo‘lgan maxsus turizm turi bo‘lib, u dam olish, ko‘ngilocharlik va iqtisodiy motivatsiyalar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Stephen J. Page sport tadbirlarini, jumladan Olimpiada va jahon chempionatlarini, mezbon hudud iqtisodiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan omil sifatida e’tirof etadi. Bunda sport turizmi turistlar oqimini oshiruvchi omil sifatida mehmonxona, transport va savdo sohalarining rivojlanishiga turtki beradi, milliy turizm va turistik shaharlarga investitsion imkoniyatlarni kengaytiradi hamda infratuzilmani modernizatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Monografiyada sport turizmi destinatsiyasi marketing bilan bevosita bog‘liq ekani asoslab berilgan.

Joy Standeven va Paul De Knop tomonidan yozilgan Sport Tourism nomli darslik sport turizmi sohasidagi eng muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu darslik sport va turizmning o‘zaro bog‘liqligini tizimli ravishda tahlil qilgan dastlabki keng qamrovli ilmiy ishlanmalardan biridir. Darslikda sport turizmi iqtisodiy hodisa, ijtimoiy jarayon va rekreatsion faoliyat sifatida kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan.

“Davlat-xususiy sheriklik” kategoriyasining ta’rifi davlat va xususiy sektorning o‘zaro hamkorligiga asoslanganligini alohida ta’kidlash lozim. Bunda davlat-xususiy sheriklik mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilinadi.

O. A. Romanova yondashuviga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik muhim loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat va biznes o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli ittifoq hisoblanadi. Bunda davlat xususiy biznes bilan hamkorlik qilib, nafaqat budjet yuklamasini kamaytiradi, balki samarali loyihalarni boshqarish tizimidan ham foydalanadi. Biznes esa muayyan kafolatlar va imtiyozlar to‘plamiga ega bo‘ladi.

Ba’zi adabiyotlarda davlat-xususiy sheriklik davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli rasmiy munosabatlar sifatida talqin qilinadi. Bunda tomonlar fan, texnologiya va innovatsiyalar sohasida aniq maqsadlarga erishish uchun resurslarni birgalikda investitsiya qiladilar.

I. E. Bolekhov fikriga ko‘ra, davlat-xususiy sheriklik davlat idoralari va xususiy biznesning o‘zaro ittifoqi bo‘lib, uning maqsadi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan tortib mamlakat yoki hudud miqyosidagi xizmatlar ko‘rsatishgacha bo‘lgan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni yaratish va rivojlantirishdan iborat.

E. A. Dinin esa davlat-xususiy sheriklikni ijtimoiy ne’matlar yaratish yoki ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun davlat va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda xususiy sektorning moddiy va nomoddiy resurslarini uzoq muddatli va o‘zaro manfaatli asosda birlashtirish jarayoni sifatida izohlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, induksiya va deduksiya, guruhlash, ekspert baholash hamda ilmiy abstraksiya usullaridan foydalanildi. Sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganishda xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilindi, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va statistik ma’lumotlar umumlashtirildi. Shuningdek, sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikning samarali yo‘nalishlari, shakllari va amaliy mexanizmlarini aniqlash maqsadida taqqoslash, tasniflash va mantiqiy umumlashtirish usullari qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikni yanada rivojlantirish, bo‘sh turgan davlat sport obyektlaridan samarali va oqilona foydalanish usullarini joriy etish hamda sport obyektlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 1-martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 184-son qarori qabul qilingan.

Ushbu qarorga muvofiq, bo‘sh turgan davlat sport obyektlari investitsiya va ijtimoiy majburiyatlarni qabul qilish sharti bilan belgilangan tartibda xususiy investorlarga beriladi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida davlat sherigi sifatida ishtirok etadi. Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitimlar esa vazirlik tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlar natijalariga ko‘ra tuziladi.

Sport turizmi tashkilotlari faoliyatini strategik rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini amalga oshirishda ijtimoiy xizmatlar ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro maqsadli va samarali hamkorlikning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon aholini sport klublari, muassasalari va tashkilotlari bilan kengroq qamrab olish, sohada kichik biznesni rivojlantirish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Sport turizmi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik tadqiqot predmetidan kelib chiqib, uning muhim tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralishi lozim. Mazkur sheriklik tadbirkorlik subyektlari, boshqaruv organlari, turli darajadagi hokimiyat tuzilmalari, sport va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi maqsadli hamkorlikni ifodalaydi. Sheriklik doirasida ishtirok etuvchi subyektlar sport turizmiga bo‘lgan ehtiyojlarni to‘liq qondirish, sohada tadbirkorlikni samarali rivojlantirish, davlat va mahalliy byudjet xarajatlarini optimallashtirish hamda xizmatlar sifatini oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni o‘z zimmasiga oladi.

Tadqiqot davomida sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikni joriy etishning samarali mexanizmlari ko‘rib chiqildi va ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi:

- fuqarolarning ayrim ijtimoiy qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash tizimini rag‘batlantirish va rivojlantirish;
- tadbirkorlar jamiyatining ijtimoiy mas’uliyatini oshirish;
- inson kapitalini rivojlantirish va investitsiyalarni kengaytirish;
- ommaviy tadbirlar bo‘yicha xayriya faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish;
- sport turizmi bo‘yicha kichik tadbirkorlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash.

Sport turizmi tashkilotlarida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini qo‘llash orqali asosiy va qo‘shimcha funksiyalar bajariladi.

Davlat-xususiy sheriklikning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

- fuqarolarni sport turizmi bilan shug‘ullanishga jalb etish bo‘yicha keng ko‘lamli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- sport turizmi xizmatlari sifatini raqobatbardosh ustunlik strategiyasi asosida oshirish;
- sport turizmi xizmatlari turlarini kengaytirish va diversifikatsiya qilish;
- innovatsion texnologiyalar asosida texnologik transformatsiyani amalga oshirish.

Davlat-xususiy sheriklikning qo‘shimcha funksiyalari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- sport turizmi sohasida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish;
- yangi yo‘nalishlar asosida yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- sport infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish;
- turli darajadagi byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va xarajatlarni optimallashtirish.

Bizning fikrimizcha, sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- ommaviy sport turlari uchun sport obyektlarini loyihalashtirish, qurish, qayta ta’mirlash va modernizatsiya qilish;
- sport turizmi xizmatlarini ko‘rsatish uchun zamonaviy sport anjomlari, jihozlari va kiyim-kechaklar bilan ta’minlash;
- jismoniy imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun moslashtirilgan sport tashkilotlari va inshootlarini tashkil etish;
- ta’lim va tibbiy xizmatlarni interfaol usullar asosida rivojlantirish, maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish, malakali mutaxassislarni jalb etish hamda bolalar va o‘smirlar uchun qo‘shimcha sport mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Davlat-xususiy sheriklik shaklida tuziladigan shartnomalar, shuningdek, konsepsiya shartnomalari sport turizmi sohasida maqsadli yo‘nalishlarni rivojlantirish va amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Sport turizmi sohasidagi davlat-xususiy sheriklik faoliyati tizimli va uzoq muddatli xususiyatga ega bo‘lishi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvorliklariga mos ravishda ma’muriy-hududiy tuzilmani takomillashtirishga xizmat qilishi lozim. Shu bilan birga, iqtisodiy subyektlar, hokimiyat organlari va hududiy boshqaruv tashkilotlari o‘zaro sherik sifatida faoliyat yuritishi hamda belgilangan maqsadlarga muvofiq aniq dasturlarni amalga oshirishi zarur.

Sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikning samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun uni ma’muriy-hududiy tuzilmani uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasiga mustaqil yo‘nalish sifatida kiritish zarur. Bu hududni rivojlantirishning strategik rejalashtirish tizimi, texnik-texnologik taraqqiyot, resurs salohiyati va ta’minoti elementlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, shuningdek, sport turizmi xizmatlarining iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi hamda maqsadli yo‘nalishlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Hokimiyat organlari va tadbirkorlik subyektlari vakillarining o‘zaro hamkorligining xorijiy va O‘zbekiston amaliyotida keng tarqalgan shakl hamda turlarini aniqlash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy funksiyalar doirasida asosiy tasnifiy belgilar ajratib olindi. Mazkur belgilar asosida davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha hamkorlikning asosiy turlari belgilandi (1-jadval).

1-jadval. Sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklik shakllarining tasnifi[1]

Tasnifiy belgi	Sheriklik shakllari
Xususiy qo‘yilmalarning foyda keltirishi darajasi	Xayriya mablag‘lari (foyda kutilmaydi) Ijtimoiy investitsiyalar (foyda kutiladi, lekin bu sheriklikning asosiy maqsadi emas) Investitsiyalar (foyda sheriklikning asosiy maqsadi hisoblanadi)
Xususiy qo‘yilmalarning turi	*Moliyaviy* aktivlar Tovarlar Xizmatlar
Legitimligi	Normativ-huquqiy hujjat asosida Tartibga solinmagan
Amalga oshirish muddati	Uzoq muddatli (strategik) – 3 yil O‘rta muddatli – 1-3 yil Qisqa muddatli – 1 yil (bir martalik bo‘lishi ham mumkin)
Sheriklik sohasi	Jismoniy tayyorgarlikni tashkil etish Tibbiy sog‘lomlashtirish Konsultatsion xizmatlar ko‘rsatish Sport ta’limini realizatsiya qilish Moslashtirish bilan bog‘liq jismoniy tarbiya Infratuzilmani rivojlantirish, uning obyektlarini modernizatsiyalash
Moliyalash manbalari	Byudjet mablag‘lari hisobiga Byudjet-xususiy mablag‘lar hisobiga Xususiy mablag‘lar hisobiga
Sheriklikning maqsadi	Obyektlarni qurish va rekonstruksiyalash Xizmatlar ko‘rsatish Infratuzilmani rivojlantirish O‘qitish Kadrlarni tayyorlash Reklama
Amalga oshirish mexanizmi	Beg‘araz maqsadsiz investitsiyaviy qo‘yilmalar Funksiyalarning bir qismini ixtisoslashgan tashkilotlarga o‘tkazish (autsorsing) Konsepsiyalar Shartnomalar, bitimlar

Sport turizmi sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning barcha shakllari quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

1. Infratuzilmaviy sheriklik:

– sport turizmi sohasi tashkilotlari tomonidan istiqbolda xizmatlar ko‘rsatish uchun sport obyektlarini yaratish va ularni zamonaviy sport vositalari hamda anjomlari bilan jihozlash;

– katta hajmdagi investitsiyalarni talab qiladigan va yuqori samaradorlikka ega loyihalarni amalga oshirish (masalan, sport majmuasini barpo etish), shuningdek, kichik investitsion mablag‘larni talab qiladigan qisqa muddatli loyihalarni joriy etish (masalan, hovlida yaxmalak maydonchasini tashkil etish);

– konsessiya bitimlari shaklida investitsiya loyihalarining sport infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy natijalariga erishish mexanizmini tashkil etish.

2. Ta’minlovchi sheriklik:

– sport inventarlari, reklama mahsulotlari, sport kiyimlari bilan ta’minlash;

– poligrafiya mahsulotlarini ishlab chiqarish;

– sport turizmi sohasi subyektlari tomonidan iqtisodiy faoliyatni faollashtirish va hamkorlik natijasida yangi imkoniyatlarni yaratish.

3. Servis sherikligi:

– xususiy xo‘jalik yurituvchi subyektlarni sport turizmi sohasi tashkilotlari tomonidan sport xizmatlari ko‘rsatishga jalb qilish;

– autsorsing tizimini va turli buyurtmalarni qo‘llash;

– masalan, ta’lim tashkilotlari o‘quvchilarining xususiy suzish havzalariga tashrif buyurishi yoki sport inshootlari yetishmagan hududlarda aholining turli guruhlari uchun sifatli sport xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish servis sherikligining natijasi hisoblanadi.

Sport turizmi sohasi tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarning aksariyati hududlardagi muassasalar yoki tashkilotlar tomonidan hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan. Shu bilan birga, ayrim xizmatlar, masalan, suzish havzalariga tashrif buyurish, tibbiy moslashtirish, mashg‘ulotlarning individual rejasini ishlab chiqish, murabbiylar malakasini oshirish kabi yo‘nalishlar sportning tegishli sohalariga ixtisoslashgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan pullik yoki bepul asosda amalga oshirilishi mumkin.

1 Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Sport turizmi sohasida servis sherikligining asosiy ishtirokchilari quyidagilardan iborat:

- davlat boshqaruv organlari;
- sport turizmi xizmatlarini ko‘rsatuvchi muassasalar va tashkilotlar;
- sport turizmi xizmatlarini ko‘rsatuvchi kichik tadbirkorlik subyektlari;
- sport turizmi sohasida faoliyat yuritadigan nodavlat notijorat tashkilotlari, xayriya tashkilotlari va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar;
- sport klublari, turli tashkilotlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda xizmatlar ko‘rsatish jarayonini moliyalashtirishda ishtirok etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar (1-rasm).



1-rasm. Sport turizmi xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligini tashkil etish mexanizmi*

*Manba: rasm muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

Bizningcha, ma’muriy-hududiy tuzilmada davlat-xususiy sheriklikni tashkil etish va amalga oshirish shart-sharoitlariga to‘liq javob beradigan o‘zaro hamkorlik tamoyillariga asoslangan ishtirokchilardan biri sifatida xususiy sport turizmi tashkilotlari va nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini birlashtiruvchi maxsus notijorat sheriklik tuzilmasini tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur tuzilma hokimiyat organlari orqali maxsus reestrga kiritilgan, ijtimoiy ahamiyatga ega tashkilot sifatida faoliyat yuritishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sport turizmini davlat-xususiy sheriklik asosida rivojlantirish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday hamkorlik davlat va xususiy sektor imkoniyatlarini birlashtirib, infratuzilmani yaxshilash, yangi sport obyektlarini barpo etish hamda xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Sport turizmining ahamiyati shundaki, u hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga turtki beradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini oshiradi. Shu bilan birga, aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Samaradorlik nuqtayi nazaridan, davlat-xususiy sheriklik moliyaviy yukni kamaytiradi, risklarni taqsimlaydi va loyihalarning tezroq amalga oshirilishini ta’minlaydi. Natijada sport turizmi barqaror va raqobatbardosh soha sifatida shakllanadi.

Amaliy tavsiyalar sifatida sport turizmi sohasida servis tarmog‘i bo‘yicha davlat-xususiy sheriklik mexanizmining quyidagi yo‘nalishlarini tavsiya etish mumkin:

- loyihalarni servis sherikligi doirasida amalga oshirish, bunda sport turizmi sohasi subyektlari kafolatlangan xizmatlarni ko‘rsatadi;
- autsorsing tizimini qo‘llash, ya’ni boshqaruv organlari sport turizmi sohasida xizmat ko‘rsatish vazifalari va funksiyalarini to‘liq yoki qisman moliyalashtiriladigan xususiy xo‘jalik yurituvchi subyektlarga topshiradi;
- hamkorlikda moliyalashtirish modelini joriy etish, bunda boshqaruv organlari yoki tashkilotlar sport turizmi sohasidagi xizmatlar ko‘rsatish vakolatlarini xususiy subyektlarga o‘tkazadi va xarajatlarning bir qismi tadbirkorning o‘zi yoki maxsus jamg‘armalar hisobidan qoplanadi;

– o‘zini o‘zi moliyalashtirish va xayriya mexanizmlarini rivojlantirish, bunda hokimiyat organlari yoki korxonalar sport turizmi sohasidagi xizmatlar ko‘rsatish vakolatlarini xususiy tadbirkorlarga topshiradi, xarajatlar esa tadbirkorlar, boshqa xususiy mablag‘lar yoki maxsus notijorat tashkilotlari hisobidan qoplanadi;

– sport turizmi sohasida maxsus va individual xizmatlarni rivojlantirish, jumladan, ixtisoslashgan xizmatlar, yakka tartibdagi xizmatlar va bir martalik xizmatlarni tashkil etish;

– byudjetdan to‘liq yoki qisman moliyalashtiriladigan buyurtma shaklidagi hamkorlik va xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.

Kelajakdagi tadqiqotlar doirasida sport turizmi sohasida davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning quyidagi asosiy tamoyillarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– hamkor tashkilot va korxonalarning geografik joylashuvini inobatga olish;
– hamkorlar malakasining tegishli tarmoq va soha ehtiyojlariga mosligini ta’minlash;
– sheriklarning moliyaviy va institutsional barqarorligini mustahkamlash;
– uzoq muddatli bitimlar tuzishga yo‘naltirilgan yondashuvlarni kengaytirish;
– hamkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga rioya etish va ular o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 28.03.2018-yildagi “ Jismoniy tarbiya va sport sohasida tadbirkorlikni hamda xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 248-sonli qarori https://lex.uz/uz/docs/-3603997
2. United Nations World Tourism Organization Tourism Highlights: 2023 Edition. – Madrid: UNWTO, 2023. – P. 8.
3. Organisation for Economic Co-operation and Development Statistics Database. – Available at: stats.oecd.org
4. Stephen J. Page. Tourism Management. – London: Routledge, 2015.
5. Joy Standeven, Paul De Knop. Sport Tourism. – Oxford; Burlington, MA: Elsevier/Butterworth-Heinemann, 2004.
6. IMEPI Eurasia. Государственно-частное партнёрство: теория и практика. – Available at: imepi-eurasia.ru
7. O. A. Romanova. Teoriya i praktika razvitiya chastno-gosudarstvennogo partnerstva // Vestnik Uralskogo gosudarstvennogo texnicheskogo universiteta. – 2007. – No. 3. – P. 41.
8. Framework Paper on Public-Private Partnership. – Available at: inage.ru/ppp/casestuty/Framework_Paper.ru
9. Tashkent State University of Economics maqolalar bazasi. – Available at: iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_U_Djumaniyazov.pdf
10. E. A. Dinin. Riski biznesa v chastno-gosudarstvennom partnerstve // Obshestvo i ekonomika. – 2007. – No. 5–6. – P. 111.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy



+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100